


2025-yil 24-dekabr

## **“Professional ta’lim tizimida dual ta’limni tashkil etish, boshqarish hamda zamonaviy ta’lim metodlari va metodologiyasi” mavzusida 3 kunlik o’quv seminari yakunlandi.**



“Professional ta’lim tizimida dual ta’limni tashkil etish, boshqarish hamda zamonaviy ta’lim metodlari va metodologiyasi” mavzusida 3 kunlik o’quv seminari yakunlandi.

Seminarning 3-kunida “Olmaliq kon-metallurgiya kombinati” AJ Kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash bo’limi boshlig’i va “Milliy texnologik tadqiqotlar universiteti “MISiS”ning Olmaliq shahridagi filiali direktorining o’quv ishlari bo’yicha o’rinbosari ishlab chiqarish va ta’lim muassasasi o’rtasida dual ta’lim asosida olib borilayotgan 2 yillik hamkorlik tajribalari haqida o’rtoqlashdi.



Kombinatning o'рта bo'g'in kadrlarini tayyorlashga mas'ul xodimi Ulug'bek Igamberdiyev kasbiy ta'lim muassasalari bilan kadrlar tayyorlash bo'yicha olib borilayotgan ishlar bo'yicha tajribalarini bo'lishdi.

Tadbirda RKTUning Toshkent shahridagi filiali, "Olmaliq KMK" AJ, "Milliy texnologik tadqiqotlar universiteti "MISiS"ning Olmaliq shahridagi filiali hamda Angren texnologiya texnikumi mas'ullari tomonidan dual ta'lim yo'nalishida hamkorlik qilish masalalarida alohida muzokaralar olib borishga kelishildi.



Ishtirokchilarga tashkilotchilar tomonidan sertifikatlar topshirildi







**source:**

*"O'zkimyosanoat" aksiyadorlik jamiyati*

<https://new.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/professional-ta-lim-tizimida-dual-ta-limni-tashkil-etish-bos>